



## TURKIYANING YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI XAVFSIZLIK DOIRASIDAGI USTUVOR YO'NALISHI

Abdinabiyev Sanjarbek Shuxratovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy

jarayonlar yonalishi magistranti

Tel: +998931911199

Email: sanjarbekabdinabiyev@icloud.com

Ilmiy rahbar: Mamadjonov Adhamjon Baxtiyorjon o'g'li

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20339027>

### ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21<sup>st</sup> May 2026

Published: 22<sup>nd</sup> May 2026

### KEYWORDS

*Turkiya, Yaqin Sharq, xavfsizlik siyosati, geosiyosiy raqobat, xalqaro tashkilotlar, tashqi siyosat, mintaqaviy tahdidlar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Turkiya Respublikasining Yaqin Sharq mintaqasidagi xavfsizlik siyosati doirasidagi ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda mintaqaviy beqarorlik, terrorizm, migratsiya va geosiyosiy raqobat fonida Turkiyaning tashqi siyosati tobora faol va murakkab tus olayotgani kuzatilmoqda. Maqolada Turkiyaning mintaqadagi asosiy raqobatchilari hamda global kuchlar bilan munosabatlari o'rganiladi. Shuningdek, Turkiyaning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, xavfsizlik sohasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlari, mintaqadagi harbiy hamda diplomatik ishtiroklari tahlil qilinadi. Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlikdagi strategik o'rni, mavjud tahdidlar va istiqboldagi yo'nalishlar haqida umumiy tahliliy fikrlar beriladi.*

### Kirish

Yaqin Sharq mintaqasi dunyodagi eng murakkab, ziddiyatli va strategik jihatdan muhim hududlardan biri hisoblanadi. Geosiyosiy jihatdan neft va gaz resurslariga boyligi, diniy-mazhabiy tafovutlar, tarixiy nizolar va tashqi kuchlarning doimiy aralashuvi bu hududni doimiy beqarorlik markaziga aylantirib kelmoqda. Ushbu beqarorlik va xavfsizlik muammolari fonida Turkiya o'zining tarixiy, madaniy va siyosiy ildizlari bilan Yaqin Sharqning asosiy geosiyosiy o'yinchilaridan biriga aylangan. Ushbu murakkab vaziyatda Turkiya Respublikasi o'zining NATOga a'zoligi, Yevropa bilan yaqin integratsiyasi, Osiyoga yaqinligi va islom olami bilan mustahkam tarixiy aloqalari orqali ko'p vektorli tashqi siyosat olib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Turkiya mintaqaviy xavfsizlik masalalarida yanada faol ishtirok eta boshladi. Xususan, Suriyada olib borilgan harbiy amaliyotlar, Liviya,

Qatardagi harbiy-boshqaruv nuqtalari, diplomatik tashabbuslar va energetika strategiyalari buning yaqqol dalilidir.

Turkiyaning bu boradagi tashqi siyosiy faoliyati mintaqadagi raqobatchilar Eron, Saudiya Arabistoni, Isroil hamda tashqi kuchlar AQSh, Rossiya, Xitoy bilan o'zaro murakkab va ko'p tomonlama munosabatlar tizimini shakllantirmoqda. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik faqatgina harbiy kuch bilan emas, balki iqtisodiy, diplomatik, axborot va madaniy sohalar bilan ham belgilanayotgan bir davrda, Turkiyaning ushbu vositalarni qanday uyg'unlashtirayotganligi ham o'rganishga arzigulik jihatlari sirasidandir.

### Asosiy qism

Turkiya o'zining geografik joylashuvi, tarixiy merosi va siyosiy faolligi bilan Yaqin Sharq mintaqasida muhim geosiyosiy o'yinchilardan biri hisoblanadi. U Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq chorrahasida joylashgan bo'lib, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Turkiyaning Yaqin Sharqdagi siyosiy faolligi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, bu o'rinda ayniqsa Usmoniylar imperiyasi merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Usmoniylar davrida (1299–1923) bugungi Yaqin Sharqning katta qismi, xususan, Suriya, Iroq, Falastin, Iordaniya, Saudiya Arabistoni va Misr hududlari to'g'ridan-to'g'ri Istanbul markazligidagi yirik imperiya tarkibida bo'lgan. Bu holat Turkiyaga mintaqaxalqlari bilan madaniy, diniy va tilshunoslik nuqtai nazaridan yaqinlik beradi. Usmoniylar imperiyasining sobiq poytaxti sifatida Turkiya Yaqin Sharq xalqlari bilan tarixiy, diniy va madaniy rishtalarga ega. Usmoniylar imperiyasi parchalanib, 1923-yilda zamonaviy Turkiya Respublikasi tashkil topganidan so'ng, mamlakatning Yaqin Sharqqa bo'lgan siyosiy e'tibori keskin pasaydi. Mustafo Kamol Otaturk davrida Turkiya asosiy e'tiborni Yevropaga yo'naltirib, mintaqaviy emas, balki g'arbiy modernizatsiyaga asoslangan ichki va tashqi siyosat olib bordi. Bu yondashuv XX asr davomida davom etdi, ayniqsa Turkiya NATO a'zosi sifatida Sovuq urush yillarida Yevro-Atlantik ittifoqda mustahkam o'rin egalladi. Biroq, 2000-yillarning boshidan boshlab, ayniqsa Adolat va Taraqqiyot Partiyasi (AKP) hokimiyatga kelgach, Turkiya tashqi siyosatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Sobiq tashqi ishlar vaziri va bosh vazir Ahmet Davutoglu tomonidan ilgari surilgan "strategik chuqurlik" nazariyasi asosida Turkiya o'zini Yaqin Sharqdagi tarixiy mas'uliyatga ega aktor sifatida qayta taqdim eta boshladi.[1] Ushbu omillar Anqara uchun mintaqada "yumshoq kuch" (soft power) vositalaridan samarali foydalanishga imkon beradi. Siyosiy jihatdan esa, "neo-usmonizm" (*neo-osmanism*) yoki "mintaqaviy liderlik" tamoyillari asosida Turkiya ko'plab tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda.

Suriyadagi fuqarolar urushi, shuningdek, Iroqdagi terrorizm xavfi va Kurdlar muammosi Turkiyani mintaqaviy xavfsizlik sohasida faolroq bo'lishga undab kelmoqda. "Firat qalqoni", "Zaytun novdasi", "Bahor qalqoni" kabi harbiy operatsiyalar orqali Turkiya Suriyaning shimolida o'z xavfsizlik zonasini yaratishga harakat qilib kelmoqda. Bu amaliyotlar ayni paytda Turkiyaning NATOdagi a'ziligiga zid bo'lmagan holda, mustaqil xavfsizlik siyosatini shakllantirayotganligini ko'rsatmoqda.

Turkiya Yaqin Sharqdagi energetika sohasidagi strategik ta'sirini ta'minlashga harakat qilmoqda. Ayniqsa, Iroq va Qatar bilan energetika hamkorliklari, tabiiy gaz yetkazib berish loyihalari (*masalan, TANAP*) mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikda Turkiyaning rolini oshirdi. Shuningdek, Turkiya, Livan, Iordaniya va Fors ko'rfazi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intilmoqda. Shuningdek, Turkiya diplomatik maydonda ham faol tarzda mintaqaviy nizolarga yechim topish va xalqaro muzokaralarda ishtirok etish orqali o'zining mintaqadagi mavjudligini mustahkamlashga harakat qilib kelmoqda. Jumladan: Ostona jarayoni (*Rossiya va Eron bilan Suriyadagi siyosiy yechim bo'yicha*), Qatarga yordam berishda faol pozitsiyasi, shuningdek, Isroil-Falastin mojarosida musulmon davlatlar nomidan chiqishlari Turkiyaning mintaqaviy diplomatiyasida ustunlik berib kelmoqda.

Turkiya mintaqada o'zini musulmon davlatlar yetakchisi sifatida ko'rsatishga harakat qilmoqda. Bu borada ayniqsa, suriyalik qochqinlarni qabul qilishi, Quddus masalasidagi qat'iy pozitsiyasi va Falastinga doimiy yordam ko'rsatishga urinishi uning imijini oshirdi. Ammo, boshqa tomondan esa, Eron va Saudiya Arabistoni bilan bo'lgan raqobat uni ehtiyotkorlik bilan yondashishga majbur qilib kelmoqda. Turkiya Yaqin Sharqda nafaqat mintaqaviy kuch sifatida, balki global siyosatda ham o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilib kelmoqda. Bu borada, harbiy kuch, iqtisodiy manfaat, tarixiy bog'liqlik va diplomatik faollik — mamlakatning Yaqin Sharqdagi strategiyasining asosiy tamoyillaridan bo'lishiga qaramasdan, bu yo'nalishlarda Turkiya bir vaqtning o'zida AQSh, Rossiya, Eron, va Saudiya Arabistoni, kabi yirik kuch markazlari bilan raqobat olib borishga majburdir.

Turkiyaning Yaqin Sharqdagi siyosiy faolligi tarixiy meros, diniy-ijtimoiy aloqalar, xavfsizlik tahdidlari va geosiyosiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq deb aytish mumkin.

Turkiya Yaqin Sharq mintaqasidagi kuch markazlari raqobatning asosiy sabablari geosiyosiy, diniy, iqtisodiy, tarixiy va madaniy omillar bilan bog'liqdir. Turkiya o'zining mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishga intilayotgani sababli, ushbu raqobatchilar bilan o'zaro aloqalari ham juda murakkab bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida takidlanganidek Shubhas bu borada Turkiyaning mintaqadagi asosiy raqobatchilari Eron, Saudiya Arabistoni, Isroil va Misr hisoblanadi. Eron shia islomiga asoslangan davlat bo'lib, Turkiya esa sun'iy islomiga asoslanadi. Eron mintaqada o'zining shia ta'sirini kuchaytirishga harakat qiladi va Iroq, Suriya va Yaman kabi davlatlarda o'zining proksiy guruhlarini doimo qo'llab kelmoqda. Qolaversa. Turkiya va Eron, ayniqsa, Iroq va Suriyaga ta'sir o'tkazishga intilishadi, bu esa o'rtalaridagi raqobatni yanada kuchaytirib bormoqda.

Eron bilan Turkiyaning munosabatlari murakkab bo'lib, Ikkala davlat ham o'z manfaatlarini himoya qilishga intiladi, ammo ba'zida ular o'rtasida hamkorlikni ham ko'rish mumkin. Bu borada Kurdiston Ishchilar Partiyasiga qarshi kurashdagi hamkorliklarni aytish mumkin.

Turkiyaning mintaqadagi yana bir raqobatchisi bo'lgan Saudiya Arabistoni o'zini islom olamida yagona peshqadam bo'lishga intilishlari bilan islom dunyosida Turkiyaga raqobat taklif qilib kelmoqda. Shuningdek, Saudiya Arabistoni Suriya va Yamanda o'z ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda, bu esa Turkiya bilan raqobatni yanada kuchaytiradi.

Bu mintaqada davlatlaridan kelib chiqadigan muammolar nafaqat Yaqin Sharq mamlakatlari, balki butun dunyo xavfsizligiga tahdid solmoqda. Eng dolzarb tahdidlar qatoriga terrorism, ichki va davlatlararo mojarolar, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalish xavfi kiradi.[2] Bundan tashqari, Yaqin Sharq mintaqadagi turli mamlakatlar yetakchiligi uchun kurash maydoni hisoblanadi. Yaqin Sharq mintaqasining siyosiy o'ziga xosligi shundaki, mintaqada siyosiy va iqtisodiy salohiyati jihatidan teng bo'lgan bir necha kuch markazlari mavjud. Biroq ularning qarama-qarshiliklari shu qadar chuqurki, ular mintaqada davlatlarining mojarolarsiz birga yashashini amalda imkonsiz qiladi. Shu bois, bir tomondan, mintaqada doimiy taranglikda, urush va tinchlik yoqasida bo'lsa, ikkinchi tomondan, mintaqada nisbiy barqarorlikni saqlash va tabiiy resurslarni qazib olish markazidan foydalanish uchun jiddiy diplomatik va harbiy harakatlarni amalga oshirayotgan yirik xalqaro o'yinchilarning e'tiborini tortmoqda. Hozirda Yaqin Sharqda tadqiqotchilar mintaqaviy yetakchilikka da'vogar uchta davlatni aniqladilar: Turkiya, Eron va Saudiya Arabistoni. Yaqin Sharqdagi mintaqaviy bo'lmagan asosiy o'yinchilar Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy va AQShdir. Bu davlatlar mintaqada o'z siyosatini yuritishda turli manfaatlarini ko'zlaydilar, turli mintaqaviy vaziyatlarni (*Falastin, Iroq, Eron yadroviiy dasturi, Suriya mojarosi*) hal etishda turli, ba'zan esa butunlay qarama-qarshi yondashuvlar yuzaga chiqmoqda. Shunday qilib, mintaqaviy davlatlarning bir-biriga mos keladigan manfaatlari, shuningdek, mintaqadan tashqari kuchlarning raqobati katta ziddiyatga olib kelmoqda.[3] Bundan kelib chiqadiki, Turkiya mintaqada yetakchilikka

da'vogar davlatlar qatoriga kiradi va uning tashqi siyosati va xavfsizlik siyosatida Yaqin Sharqning o'rnini muhim hisoblanadi. Adolat va taraqqiyot partiyasining hokimiyatga kelishi bilan Turkiya Yaqin Sharqda yetakchilik uchun kurashda faollashdi.

Anqara mintaqadagi o'z mavqeini mustahkamlashga urinishlari bilan shu asosda jahon yetakchisi roliga da'vogarligini ko'rsatdi. Arab bahori Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyatga katta o'zgarishlar kiritdi. Mintaqaning geosiyosiy konfiguratsiyasidagi o'zgarishlar uning mintaqaviy ahamiyatini oshirdi va bu gegemon kuchlar uchun ham muhim bo'ldi. Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi V.V.Naumkinaning takidlashicha afsuski, mintaqadagi inqilobiy qo'zg'olonlar sunniylar va shialar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, ularning ziddiyatini so'nggi nuqtaga olib kelgan. Bu jarayonlarga mintaqaviy va global kuch markazlarining ambitsiyalari ham ta'sir ko'rsatdi. Shia va sunniy musulmonlar o'rtasidagi diniy va siyosiy ziddiyatni ham Yaqin Sharq muammolari qatoriga kiritish mumkin. So'nggi yillarda shialar va sunniylar o'rtasidagi kelishmovchiliklar birinchi o'ringa chiqdi, chunki ular Yaqin Sharq mintaqasining mintaqaviy xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sunniy-shia mojarosini bir qancha mualliflar sunniylik va shia olamida an'anaga ko'ra yetakchilikka da'vo qilayotgan Turkiya, Saudiya Arabistoni va Eron o'rtasidagi deb ta'riflagan. Saudiya Arabistoni va Eron Islomning ikki asosiy oqimi o'rtasidagi mavjud diniy qarama-qarshilikdan o'z milliy manfaatlari yo'lida diniy tafovutlarni siyosiy lashtirish uchun foydalanmoqda. Aytish kerakki, xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichida sunniylar va shialar o'rtasidagi ziddiyat diniy omilning xalqaro munosabatlarda namoyon bo'lishining eng yorqin misolidir. Iroq aholisining mutloq ko'p qismini tashkil etuvchi Kurdlar, Baaschilar hukmronligi bilan o'sha paytda ular har qanday norozilik uchun ommaviy repressiyaga duchor bo'lgan. Biroq, buning sababi klassik etnik yoki diniy qarama-qarshilik emas edi. Buning asosiy sababi "homo ideologicus" qoidasi paradigmasi edi, bu esa siyosiy makonni direktiva bilan kiritilgan mafkuraga mos kelmaydiganlardan tozalashni anglatardi. Shialar esa arab millati yagona va uning missiyasi muqaddas degan tamoyildan tashqariga chiqqan diniy o'zligini ta'kidlaganliklari uchun e'tirozlar ostida edi. Sunniylarga keladigan bo'lsak, ular o'rtasida har qanday norozilik shafqatsizlarcha jazolangan bo'lsa-da, g'oyaviy-siyosiy tartibga solish nuqtai nazaridan ular Baas hukumati uchun eng qulay guruh bo'lib chiqdi. Hozirda mintaqa siyosiy nuqtai nazardan nihoyatda murakkabligini ko'rish mumkin. Jahon hamjamiyatining turli mojarolarni hal etish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikning barqaror tizimini yaratish borasidagi ko'plab urinishlari kutilgan natijalarni bermadi. Bu esa mavjud tahdidlarni yanada kuchaytirdi va yangi inqirozlarni keltirib chiqardi. Mintaqadagi eng muhim muammolardan biri mintaqaviy va xalqaro terrorizm muammosidir. Bir qator Yaqin Sharq davlatlari terrorchi guruhlardan o'z siyosiy ambitsiyalarini ro'yobga chiqarish uchun foydalanadi va mintaqaviy raqobatchilarning mavqeini pasaytirishga harakat qiladi. Misol uchun, aksariyat guruhlar Eron tomonidan moliyalashtiriladigan shia harakatlari (*Hizbulloh, Mahdiy armiyasi*) va sunniy harakatlariga bo'lingan.

Salafi guruhlari Saudiya Arabistoni maxsus kuchlari zobitlari ishtirokida Saudiya Bosh razvedka boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. "Musulmon birodarlar" bo'linmalari Qatar tomonidan Qatar maxsus kuchlari yordamida muvofiqlashtiriladi. 2011 yildan beri Suriya shia va salafiy guruhlarning asosiy jang maydoniga aylandi va shuningdek, Liviya ham bundan mustasno bo'lib qolmadi. Suriya rahbariyatining Suriyadagi vaziyatni tartibga solish borasidagi sa'y-harakatlari besamar ketdi. Biroq, sunniylar va shialar o'rtasidagi ziddiyat Suriyadan Livan va Iroqgacha tarqalib, Saudiya Arabistoni va Eron o'rtasida yirik mintaqaviy urushga aylanib qolish xavfini tug'dira boshladi. Qayd etish joizki, terrorizm nafaqat Yaqin Sharq mintaqasiga, balki birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi va AQShga tahdid solmoqda.[4] 2016-yil 22-may kuni Turkiya Bosh vaziri Ahmad Dovuto'g'lining iste'foga chiqishi Turkiya siyosatida muhim ahamiyat kasb etdi. Arab bahori voqealari Turkiya Respublikasining mintaqaviy tashqi siyosati uchun sinov bo'lib, uning samarasizligini ko'rsatdi. Turkiyaning eksklyuziv mintaqaviy siyosat olib borishi qo'shni davlatlar bilan munosabatlarning

yomonlashishiga olib keldi. Ayni paytda Anqaraning Yaqin Sharqdagi zamonaviy tashqi siyosati "arab bahori" voqealaridan kelib chiqadi. Mintaqadagi yetakchilikni mustahkamlash uchun Turkiya rahbariyati Yaqin Sharq quyi tizimi uchun qulay konfiguratsiyani yaratishi kerak. Anqara mintaqadagi bugungi mavqeini mustahkamlash uchun barcha mavjud tashqi siyosat vositalaridan foydalanishga harakat qilmoqda. Shunday qilib, Anqaraning tashqi siyosat vositalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harbiy-siyosiy sohada - harbiy mashg'ulotlar, harbiy harakatlar, harbiy bazalar qurish; iqtisodiy sohada - Turkiya iqtisodiyotiga investitsiyalar va mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish; mafkuraviy sohada - insonparvarlik yordami, ta'limning turk modelini ilgari surish;

Turkiyaning harbiy-siyosiy manfaatlarini himoya qilishda Yaqin Sharq davlatlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan harbiy mashg'ulotlar yordam bermoqda, bu esa turk qurolli kuchlarining mintaqadagi raqobatchilari nazarida Turkiyaning ta'sirini kuchaytirmoqda. Aynan shu sababli Turkiya va Saudiya Arabistoni qurolli kuchlari o'rtasida muntazam qo'shma mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. 2016-yilda Anqara va Ar-Riyod qurolli kuchlari uch marta mashg'ulotlarda qatnashgan.[5] Ular orasida 2016-yilning fevral oyida bo'lib o'tgan havo kuchlarining mashg'ulotlarini alohida ta'kidlash lozim.[6] O'shanda Rossiyada taqiqlangan "Islomiy davlat"ga qarshi "Incirlik" aviabazasidan foydalangan holda qo'shma harbiy amaliyotlar o'tkazish imkoniyati faol muhokama qilingan edi. 2016-yilning fevral-mart oylarida Turkiya Saudiya Arabistonida o'tkazilgan "Shimoliy bo'ron" harbiy mashg'ulotlarida kuzatuvchi sifatida qatnashdi.[7] 2017 yil aprel oyida tomonlar yana bir qo'shma mashg'ulot o'tkazdilar.

2017 yilning aprel oyida tomonlar Turkiya poytaxti Anqara yaqinida "Cho'l bo'ri-2017" deb nomlangan qo'shma mashg'ulotlarni ham o'tkazdilar. Bundan tashqari, Anqara tez-tez mintaqa uchun muhim voqea fonida harbiy manevrlar o'tkazib, siyosiy bosim yoki qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida harakat qiladi. Xususan, 2017-yil sentabr oyida Iroq Kurdistonining mustaqilligi bo'yicha referendum o'tkazilayotgan vaqtda Turkiya va Iroq ikki davlat chegarasida harbiy mashg'ulotlar o'tkazdi va bu referendum jarayonlari na Anqara, na Bag'dod manfaatiga to'g'ri kelmasdi. Ushbu epizod siyosiy bosim o'tkazish uchun mashg'ulotlardan foydalanishga misol bo'lib xizmat qiladi. Qatar qurolli kuchlari bilan 2017-yilning iyun va avgust oylarida o'tkazilgan qo'shma harbiy mashg'ulotlar siyosiy izolyatsiya va mafkuraviy tafovutlar tufayli Fors ko'rfazi monarxiyalari tomonidan Dohani blokadaga olish fonida turk rahbariyatining qatarlik hamkasblarini qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatdi. Yaqin Sharq mamlakatlari hududida harbiy bazalar qurish Turkiya uchun muhim yo'nalish va ahamiyat kasb etdi. 2016 yilning noyabr oyida Qatar va Turkiya o'rtasida harbiy sohada hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan bo'lib, unda amirlik hududida turk harbiy bazasini qurish ko'zda tutildi. Harbiy baza 2017 yildan beri ishlab kelmoqda. Bundan tashqari, 2017-yil iyul oyida Turkiya prezidenti Erdog'anning Saudiya Arabistoniga tashrifi chog'ida qirolik hududida harbiy baza ochishni taklif qilgan, biroq, Ar-Riyod bu tashabbusga javob bermagan. Harbiy-siyosiy sohada tashqi siyosiy maqsadlarga erishishning yana bir mexanizmi mintaqa davlatlari hududida harbiy amaliyotlar o'tkazishdir. Bunday operatsiyalardan asosiy maqsad Turkiya rahbariyati kun tartibida asosiy o'rinlardan birini egallagan kurd tahdidini bartaraf etishga harakat qilish deb baholash mumkin, chunki bu Turkiya Respublikasining milliy xavfsizligiga tahdid soladi. Arab bahori boshlanishi va qo'shni davlatlarda beqarorlikning kuchayishi bilan Anqara muntazam ravishda Iroq va Suriyada harbiy amaliyotlar olib bordi. Bundan ko'zlangan maqsad Turkiyada faoliyati taqiqlangan Kurdiston Ishchilar partiyasiga aloqador kurd bo'linmalariga imkon qadar ko'proq zarar yetkazish edi. Shunday qilib, 2015-yil dekabr oyida Turkiya qurolli kuchlari Iroq hududiga bostirib kirdi va rasmiy Bag'dodning hududni tark etish talabiga qaramay, hozirgacha u yerda qolmoqda. Buning qo'shtirnoq ichidagi rasmiy sababi Rossiya Federatsiyasi tomonidan taqiqlangan "Islomiy davlat"ga qarshi kurashish uchun o'zini-o'zi mudofaa bo'linmalarini tayyorlashni boshlaganini ta'kidlaydi. Kurd tahdidiga qarshi turish uchun Anqara 2016-yil avgust oyida

qo'shni Suriya hududida "Firat qalqoni" operatsiyasini boshlaganini e'lon qilgan, va 2017-yil mart oyida ushbu amaliyot muvaffaqiyatli yakunlanganligini bildirgan edi. Buning natijasida Turkiya rahbariyati operatsiyaning muvaffaqiyatli tugaganini Turkiya-Suriya chegarasida kurdlar nazorati ostidagi ikki hududning birlashishini hamda turk qo'shinlari kurdlarning tahdidlarini oldini olishga muvaffaq bo'lganligi bilan izohlagan. Ammo Turkiya bu bilan to'xtab qolmadi va 2018-yilning yanvarida turk qo'shinlari Afrin mintaqasidagi Suriya hududiga yana kirib, hududni nazorat qilayotgan kurd kuchlariga qarshi kurash olib bordi.

Turkiya prezidenti Erdog'an "Zaytun novdasi" deb nomlangan operatsiya mamlakatning "milliy xavfsizligi"ni ta'minlash maqsadida o'tkazilayotganligini takidlagan. Anqaraning harbiy tayyorgarligini samaradorligini hisobga olsak, bu yuqori saviyada, deyishimiz mumkin. Turkiya Respublikasining Qatarga harbiy mashg'ulotlar doirasida ko'rsatgan yordami, Eron va Ummonning ko'magi bilan Tamim bin Al Tani hukumatining hokimiyatda qolishiga imkon berdi. Shuningdek, "Firat qalqoni" operatsiyasi davomida Turkiya rahbariyati tomonidan ilgari surilgan maqsadlar muttasil o'zgarib turdi va asosiy vazifa – kurd qo'shinlarini yo'q qilish amalga oshirilmadi. Turkiya ommaviy axborot vositalari, xususan "Milliet" gazetasi tarqatgan ma'lumotlarga ko'ra, operatsiya davomida Turkiyaning 67 nafar askari halok bo'lgan. Bundan tashqari, operatsiyani to'xtatish qarori ichki siyosiy sabablarga ko'ra amalga oshirilgan edi.[8] Bu orqali Erdog'an kichik farq bilan g'alaba qozongan konstitutsiyaviy referendum arafasida mamlakatdagi ta'sirini kuchaytirdi. Yaqin Sharq instituti eksperti M.V. Kazanin xitoylik kuzatuvchilar ma'lumotlariga tayanib, turk armiyasi 2018-yil 12-fevral holatiga ko'ra "Zaytun novdasi" operatsiyasi davomida 25 tagacha Leopard asosiy tankini yo'qotganini ma'lum qilgan. Shu bilan birga, Turkiyaning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Anqara kurd otryadlari butunlay yo'q qilinmaguncha operatsiyani yakunlamaydi, deb taxmin qilingan edi. Bu borada, Turkiya tomonidan harbiy-siyosiy mexanizmlardan foydalanish bo'yicha paydo bo'layotgan tendensiyalarni qayd etish joizdir. Birinchidan, Turkiya qurolli kuchlari tomonidan mintaqadagi kurd guruhlarini yo'q qilishga qaratilgan harbiy amaliyotlar soni oxirgi paytlarda ortib bormoqda. Bu Turkiya rahbariyati tashqaridan yordam kutmasdan mustaqil ravishda o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga tayyor ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, Qatarda harbiy bazaning qurilishi va ochilishi Anqaraning mintaqqa mamlakatlari xavfsizligi va barqarorligining kafolati bo'lib ko'rinishi, shu bilan birga mintaqadagi o'z mavqeini mustahkamlash istagini ko'rsatadi. Uchinchidan, aniq tashqi siyosiy maqsadlarga erishish uchun harbiy mashqlardan samarali foydalanish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu orqali, Turkiya Yaqin Sharq mintaqasida o'z mavqeini mustahkamlab, mintaqadagi ta'sirini har tomonlama mustahkamlab bormoqda.[9]

Turkiya va Iroq o'rtasidagi aloqalar so'nggi yillarda sezilarli darajada mustahkamlanganligini takidlash mumkin. Bu borada, ayniqsa, 2024-yilda Turkiya Prezidenti Rajab Tayyip Erdog'anning Bag'dodga qilgan tashrifi davomida ikki mamlakat o'rtasida 26 ta kelishuv imzolanganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Kelishuvlar turli sohalarida, jumladan, xavfsizlik, energetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va savdo sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Endi esa Iroq va Turkiyaning bugungi kundagi munosabatlariga alohida to'xtaladigan bo'lsak, Bag'dod va Anqara o'rtasidagi xavfsizlik hamkorligi yangi bosqichga chiqayotganini ham ko'rish mumkin. 2024-yil avgust oyida ikki davlat mudofaa vazirlari Bag'dodda uchrashib, harbiy, xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha kelishuv imzoladilar. Ushbu kelishuv doirasida Bag'dodda Qo'shma Xavfsizlik Kordinatsiya markazi va Bashiqqa shahrida Qo'shma Ta'lim va Hamkorlik markazi tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Iroq va Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida "Development Road" loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihada Iroqning Basra shahridagi Al-Fav portini Turkiya bilan bog'laydigan 1,200 km uzunlikdagi temir yo'l va avtomobil yo'lini qurish nazarda tutilgan. Loyiha 2025-yilda boshlanib, 2030-yilda yakunlanishi reja qilingan.

Ushbu loyiha orqali Yaqin Sharq va Yevropa o'rtasidagi savdo yo'llari qisqaradi va iqtisodiy aloqalar mustahkamlanishiga ham umid bildirilmoqda.

Aytish joizki, 2024-yil dekabr oyida Iroq Bosh vaziri Muhammad Shia al-Sudani Anqaraga tashrif buyurib, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish bo'yicha muzokaralar olib bordi. Ushbu tashrif davomida ikki mamlakat o'rtasida 11 ta yangi kelishuv imzolangan bo'lib, jumladan, savdo, mudofaa va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turkiya Yaqin Sharq mintaqasida tobora faol va murakkab tashqi siyosat olib bormoqda. Bu siyosat geosiyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy yo'nalishlarda muvozanatlashgan strategiya asosida shakllanmoqda. Turkiyaning mintaqaviy siyosati, bir tomondan, tarixiy merosi, diniy-madaniy yaqinligi va geostrategik joylashuvi bilan izohlanar ekan, ikkinchi tomondan, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari, terrorizm, migratsiya va energetika muammolariga bevosita taaluqlidir.

Suriya inqirozi Turkiya tashqi siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Kurd Ishchilar Partiyasiga qarshi kurash, muhojirlar masalasi, xavfsizlik zonalarini tashkil etish orqali Anqara o'z manfaatlarini himoya qilishga intilmoqda. Shu bilan birga, AQSh va Rossiya bilan muvozanatli aloqalarni saqlab, mintaqada ta'sir doirasini kengaytiryapti. Iroqdagi faoliyat ham Kurd Ishchilar Partiyasiga qarshi operatsiyalar, xavfsizlik markazlari tashkil etish, tranzit va infratuzilma loyihalar orqali mustahkamlanmoqda. Yuqorida takidlanganidek, Turkiya Iroq bilan 26 ta strategik shartnoma imzolab, bu mamlakat bilan siyosiy va iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtirmoqda. Ayniqsa, "Quruq yo'lak" (Dry Port) loyihasi va Faw porti orqali BAA va Fors ko'rfazi davlatlariga chiqish yo'llari ochilishi Turkiya uchun iqtisodiy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Eron bilan Turkiya o'rtasida esa murakkab raqobatbardosh munosabatlar mavjud bo'lib, Suriya va Iroqdagi harbiy-siyosiy pozitsiyalarning qarama-qarshiligi, diniy mafkuralar farqi va energetika manfaatlari ikki davlatni doimiy raqobatda ushlab turadi. Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasidagi savdo, tranzit, madaniy hamkorlik sohalarida ijobiy harakatlar mavjud. 2025-yil Madaniy hamkorlik yili deb e'lon qilinishi bu munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi mumkin. Biroq, Eron yadro dasturiga nisbatan g'arb davlatlarining qarashlari, Isroil bilan tez-tez ro'y berayotgan mojarolar va Eronga qo'yilgan sanksiyalarni inobatga oladigan bo'lsak, ushbu raqobatda Turkiyaning imkoniyatlari bir muncha yuqoriroq deyish mumkin.

Fors ko'rfazi davlatlari bilan munosabatlar esa Turkiyaning iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. BAA, Saudiya Arabistoni, Qatar bilan aloqalarni tiklash va chuqurlashtirish orqali Turkiya moliyaviy investitsiyalarni jalb qilish, mudofaa sanoatini rivojlantirish va mintaqaviy liderlikni mustahkamlashga intilmoqda. Bu, o'z navbatida, Turkiyaning "muvozanatli tashqi siyosati" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Xavfsizlik va harbiy salohiyat jihatidan, Turkiya milliy mudofaa sanoatini jadal rivojlantirib, o'zining strategik mustaqilligini ta'minlashga intilmoqda. Bayraktar TB2 va boshqa ilg'or texnologiyalar orqali Turkiya nafaqat o'z hududida, balki Yaqin Sharq va undan tashqarida ham ta'sir kuchini kengaytirmoqda. Harbiy mahsulot eksporti va NATO doirasidagi faol ishtirok bu yondashuvning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi.

Diplomatik sohada Turkiya ko'p yo'nalishli tashqi siyosat olib bormoqda. AQSh va NATO bilan ittifoqchilikni saqlagan holda, Rossiya, Xitoy, Eronga nisbatan ham pragmatik yondashmoqda. Bu esa uni global geosiyosiy o'yinda muhim o'ringa ega davlat sifatida namoyon qiladi. Rossiyaning bugungi kunda Ukraina muammosi ortidan G'arb bilan olib borayotgan kurashi, Tramp prezidentlikka saylanganidan so'ng sodir bo'layotgan Vashington va Pekin o'rtasidagi iqtisodiy urishdan kelib chiqadigan bo'lsak, ayni damda Turkiya mintaqada yaqqol lider bo'lib olishga juda yaqin deyish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiya Yaqin Sharqda o'z strategik ta'sirini kengaytirib, tashabbuskor va dinamik siyosat olib borayotgan mintaqaviy qudratli davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada, harbiy qudratini mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy liderlikka erishishni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Kelgusida esa bu siyosat ichki siyosiy barqarorlik, xalqaro bosimlarga qarshi turish va mintaqaviy muammolarni diplomatik yo'l bilan hal etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Turkiyaning Yaqin Sharqda olib borayotgan faol siyosati hozircha samarali ko'rinmoqda. Ammo u doimiy ravishda o'zgarib borayotgan global kuchlar muvozanatiga, mintaqadagi keskinliklarga va iqtisodiy omillarga moslashishga majbur bo'ladi. Shu bois, Turkiya uchun eng asosiy strategik yondashuvlar moslashuvchanlik, xavfsizlik va manfaatlarini ilgari surish deb aytish mumkin. Umuman olganda, bugungi kunda prezident Erdog'an olib borayotgan siyosatdan shuni ko'rish mumkinki, Turkiya ko'p vektorli tashqi siyosati orqali mintaqada o'z tasir doirasini kengaytira oladi. Biroq, bu borada tashqi kuchlar hamda ichki siyosatda ham barqarorlikka alohida e'tibor qaratishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turkey as a New Security Actor in the Middle East: Beyond the Slogans. Perceptions: Journal of International Affairs, 16(2), P. 61-80.
2. <https://russiancouncil.ru/analytics-andcomments/analytics/budushchee-blizhnego-vostoka-dva-gorizonta-ugroz-i-vozmozhnostey/> (accessed 12.09.2020). (In Russ.).
3. Ryzhov I.V., Borodina M.Yu. "Arabskaya vesna" kak quintessentsia mejarabskikh protivorechiy // Vestnik Nizhegorodskogo universiteta im. N. I. Lobachevsky. 2012. No. 6 (1). P. 252-256.
4. Petrosyan D. От боевых организаций к обществу-политическим (на примере ASALA) // Mat. mejd. conf. "Terrorism v sovremennom obshchestve -factors, aspects, tendencies" (Chisinau, September 29-30, 2001). Chisinau, 2001.
5. <http://aa.com.tr/tr/dunya/turkiye-suudi-arabistan-iliskileriivmekazaniyor/655768>
6. <https://tr.mehrnews.com/news/1858748/T%C3%BCrkiye-Suudi-Arabistanla-askeri-tatbikat-yapacak>
7. <http://www.hurriyet.com.tr/dunya/suudi-arabistanda-buyuk-tatbikat-40061508>
8. Avatkov V.A. Crisis Turetskoy identichnosti. // Politics and society. 2017. No. 4. P. 96-103.
9. Drujilovsky S.B. Turkey: privychka upravlyat. // Russia and global politics. 2005. #6. P. 48-61
10. Website: [www.ajird.journalspark.org](http://www.ajird.journalspark.org) Volume 29, June-2024, P. 160-165